

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

YUSUPOVA NARGIZA ADASHALIYEVNA

**KIMYO O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING FUNKSIONAL
SAVODXONLIGINI BAHOLASH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Pedagogika fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Yusupova Nargiza Adashaliyevna

Kimyo o‘qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasi..... 3

Юсупова Наргиза Адашалиевна

Методика оценивания функциональной грамотности студентов в процессе обучения химии 25

Yusupova Nargiza Adashaliyevna

Methodology for assessing the functional literacy of students in the process of teaching chemistry 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

YUSUPOVA NARGIZA ADASHALIYEVNA

**KIMYO O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING FUNKSIONAL
SAVODXONLIGINI BAHOLASH METODIKASI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7968 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shernazarov Iskandar Ergashovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xushvaktova Xusnobod Soliyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Odilxo'jazoda Nigoraxon Baxtiyorxo'ja qizi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning «_____» _____2025-yil soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-91; e-mail: fardu_info@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-91; e-mail: fardu_info@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» _____kuni tarqatildi.

(2025 yil «_____» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

V.U.Xo'jayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosida bir martalik Ilmiy kengash raisi,
kimyo fanlari doktori, professor

Sh.Sh.Turg'unboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosida bir martalik Ilmiy kengash kotibi,
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.A.Mamajonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosida
bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo'layotgan global ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar intellektual salohiyatli, iqtidorli, kreativ fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash amaliyotiga, xalqaro baholash tadqiqotlariga o'quvchi va o'qituvchilarni tayyorgarligini oshirishda tabiiy-ilmiy savodxonlikka alohida e'tibor qaratilgan. Bunda o'qituvchilar o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha turli zamonaviy yondashuvlarni jamlash, binobarin talabalarning tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ fikrlashlarini amaliyotga yo'naltirilgan, ta'lim tizimida talabalar uchun funksional savodxonlikni shakllantirishga imkon beruvchi integrativ faoliyat amalga oshiriladi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro baholash dasturlarida bugungi kunda ta'lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, ta'lim tizimida o'zgarishlar kiritish zarurligi ta'kidlangan.

Dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekani e'tirof qilingan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar faoliyati o'quv dasturlarini takomillashtirish va qayta ishlashga qaratilgan. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari xalqaro ta'lim talablarga mosligi, talabalarning o'qish, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ fikrlashini rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etib, ijobiy natijaga erishishi bo'yicha samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuning uchun ta'lim oluvchilarning kompetensiyalardan foydalanish, o'z qobiliyatlari, ijodkorligi, tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratuvchi ta'lim muhitini joriy qilishga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazish tavsiya qilinmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish mexanizmlarini shakllantirish, iqtisodiyotning zamonaviy talablarini hisobga olgan holda davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, talabalarning savodxonligini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Talabalar bilimni baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisligini ta'minlash, jumladan baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish"¹ vazifalari ustuvor etib belgilandi. Bu esa, o'qitish jarayonida talabalarning savodxonligini baholash metodikasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2022-yilning 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.

tasdiqlash to'g'risidagi farmoni, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlash oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 997-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari va talabalarning iqtidorini aniqlash, ijodiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish qator tadqiqotlar va ilmiy ishlarda yoritilgan; o'quvchi va talabalarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish M.Vaxobov, M.A.Yuldashev, U. Inoyatovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan bo'lsa, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va shu asosda ijodkorligini oshirish, bilim darajasini diagnostika qilish masalalari N.Azizxodjaeva, U.Inoyatov, B.Xodjaev, U.Sodiqovlarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Ta'lim sifatini baholash muammosining dolzarbligi mahalliy va xorijiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida olib borilgan tadqiqotlar bilan yaqqol namoyon bo'ladi. Shunday qilib, so'nggi yillarda ta'lim sifati tushunchasining mohiyatini ochib berish kabi masalalarga katta e'tibor berilmoqda. Rossiya davlatida bu soha bo'yicha bir qancha olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Masalan: ta'lim sifati tushunchasining mohiyatini ochib berishda V.P. Bespalko, G.A.Bordovskiy, B.G. Gershunskiy, V.P. Panasyuk, M.M. Potashnik, N.A.Selezneva va boshqalar, pedagogik kvalimetriya bo'yicha V.P. Bespalko, A.I.Su-Betto va boshqalar), talabalarning bilim va ko'nikmalarining sifati (E.A.Krasnovskiy, T.L.Kogan va Y.Lerner, M.N.Skatkin va boshqalar), talabalar ta'limiga darajadagi yondashuv (O.E. Lebedev, L.M. Perminova, A.P. Tryapitsina va boshqalar), ta'lim sifatini monitoring qilish va diagnostika qilish (B.P. Bitinas, V.V. Guzeev, I.Yu. Gutnik, V.A. Kalney, V.N. Maksimova, A.N. Mayorov, S.E. Shishov, A.P. Tryapitsina va boshqalar), talabalar yutuqlarini baholash (V.M. Blinov, V.Pisarev, V.M.Polonskiy, A.N. Mayorov va boshqalar), kompetentsiyaga asoslangan yondashuv (I.Y. Aleksashina, O.V. Akulova, V.A. Kalney, S.P. Pisareva, S.B.Shishov va boshqalar). Ko'pgina ishlar xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bajarilgan (K. Ingenkamp, I. Kosta, R. Wohlseller, D. Nixon, G. Cawelti, M. Holt va boshqalar).

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy

rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasini rivojlantirish mexanizmini tabiiy fanlar integratsiyasi asosida ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning funksional savodxonligini uslubiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarida va amaliyotida baholash muammosining holatini tahlil qilish;

funksional savodxonlikni baholash darajasini belgilash uchun uning sifat parametrlarini aniqlash;

funksional savodxonlikni baholashning uslubiy xususiyatlarini aniqlash va shu asosda sifatini monitoring qilish modelini yaratish;

talabalarning bilim sifatini monitoring qilish texnologiyasidan foydalangan holda mavzular bo'yicha talabalarning funksional savodxonlikni sifatini baholash metodologiyasini ishlab chiqish;

funksional savodxonlikni sifatini baholash uchun ishlab chiqilgan metodologiyaning samaradorligini eksperimental ravishda tekshirish va undan o'quv amaliyotida foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogika institutlarining 524 nafar talabalari jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini kimyo o'qituvchi jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasi tabiiy fanlar integratsiyasi asosida rivojlantirishning mazmuni, komponentli tuzilmasi, funksiyalari, tashkiliy-pedagogik sharoitlari, metodlari va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, so'rovnoma, nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, umumlashtirish), va matematik statistik tahlil (ma'lumotlarga statistik ishlov berish, natijalarni monitoring qilish) hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholashning didaktik imkoniyatlari o'zlashtirilgan bilim darajasi traektoriyasini belgilashga qaratilgan sifat parametrlarini ta'limiy maqsadlar mazmuniga moslashtirish hamda integrativ yondashuv kontekstidan foydalanishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasi kreativ fikrlash mobilligini oshirishga qaratilgan amaliy natijadorligini baholash va sifatini monitoring qilishga dinamik ustuvorlik berish hamda orttirilgan bilimlarni amalda qo'llash pragmatikligini bosqichma-bosqich ta'minlashga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasi mavzular bo'yicha funksional savodxonlik parametrlarini qiyosiy

aniqlash hamda uslubiy yondashuvlar, yetakchi g'oyalarga ko'ra iyerarxik darajalash asosida takomillashtirilgan;

kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash samaradorligi bilimlarni eksperimental ravishda muntazam tekshirish, diagnostik metodikalar va trening texnologiyalarni tadqiq etish hamda pedagogik jarayonining tashkiliy-pedagogik muhitini barqaror rivojlantirib borish asosida takomillashtirishgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholashda kimyoviy tushunchalar va fan ko'nikmalarining (intellektual, kommunikativ, baholash va uslubiy, kimyoviy-eksperimental, ramziy-grafik, konstruktiv-modellashtirish), rivojlantirish va funksional savodxonligini baholashning pedagogik imkoniyatlari va bilim darajasini baholash traektoriyasini belgilashga qaratilgan sifat parametrlarini ta'limiy maqsadlar mazmuniga moslashtirilgan;

kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasi kreativ fikrlash mobilligini oshirishga qaratilgan baholash metodologiyasini modernizatsiya qilish hamda fikrlash amaliy natijadorligini baholash va sifatini monitoring qilishga dinamik ustuvorlik berilgan;

talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasi yetakchi g'oyalar va metodlarga ko'ra darajalash asosida takomillashtirish, diagnostika, monitoring va sertifikatlash bosqichlarining uzluksizligi, shuningdek joriy, oraliq va yakuniy baholash; baholash xarakteridagi Ekspres, tizimli va kompleks vazifalarni-hisoblagichlardan bosqichma-bosqich foydalanilgan;

kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash samaradorligi: kimyo fanidan talabalarni funksional savodxonligini baholashning psixologik, pedagogik va didaktik-uslubiy asoslarini puxta va har tomonlama tahlil qilingan;

tadqiqotning maqsadi, vazifalari, gipotezasi, ob'ekti va predmeti uchun qo'llaniladigan tadqiqot usullarining yetarliligi, pedagogik eksperimentni to'g'ri o'tkazish va uning natijalarini sifatli va miqdoriy baholashning yetarli zamonaviy usullardan foydalanilgan.

Ishni sinovdan o'tkazish va natijalarni amalga oshirish.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi metodologik yondashuv va tamoyillarga asoslanilgani, kimyoning mantiqiy asoslariga tayanilgani, tadqiqot usullarining validligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari va natijalarining identivligini ta'minlangani, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning aprobatsiyadan o'tkazilgani, tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning funksional savodxonlikni baholashni rivojlantirish muammosiga doir milliy va xorijiy tajribalarning tizimlashtirilgan, kimyo ta'limining rivojlantirishga doir edukologik imkoniyatlari ochib berilgan. Asinxron va sinxron topshiriqlar asosida ta'lim oluvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda integratsiyalashgan ta'lim muhitini tashkil etishga qo'yiladigan didaktik, metodik va ergonomik talablar ishlab chiqishda asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati muammaoli-izlanishli-kreativ vaziyatlarni intensiv qo'llashga doir topshiriqlar ishlab chiqilgani, funksional savodxonlikni baholashga oid (joriy, oraliq va yakuniy nazorat uchun) topshiriqlar tayyorlashda zamonaviy ta'lim texnologiyasi muhitini yaratishning tashkiliy-metodik, baholashning diagnostik tizimlari takomillashtirilgani hamda talabalarning funksional savodxonligini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasini rivojlantirish asosida:

kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholashning didaktik imkoniyatlari o'zlashtirilgan bilim darajasi traektoriyasini belgilashga qaratilgan sifat parametrlarini ta'limiy maqsadlar mazmuniga moslashtirish hamda integrativ yondashuv kontekstidan foydalanishga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid takliflar "Kimyoni o'qitishda xalqaro baholash usullaridan foydalanish" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27-dekabrda 485–sonli qaroriga asosan 224528–sonli guvohnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasa talabalarini kimyo fanidan o'zlashtirgan funksional savodxonligini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan;

kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasi kreativ fikrlash mobilligini oshirishga qaratilgan amaliy natijadorligini baholash va sifatini monitoring qilishga dinamik ustuvorlik berish hamda orttirilgan bilimlarni amalda qo'llash pragmatikligini bosqichma-bosqich ta'minlashga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Kimyoni o'qitishda xalqaro baholash usullaridan foydalanish" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485–sonli buyrug'iga asosan 224528–sonli guvohnomasi). Natijada, talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasining samaradorligini oshirish imkoni kengaytirilgan;

kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasi mavzular bo'yicha funksional savodxonlik parametrlarini qiyosiy aniqlash hamda uslubiy yondashuvlar, yetakchi g'oyalarga ko'ra iyerarxik darajalash asosida takomillashtirishga oid takliflar "Anorganik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti kengashining 2023 yil 30-maydagi 10/3.4–sonli qaroriga asosan 2023/164U-31–sonli guvohnomasi). Natijada, kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan;

kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash samaradorligi bilimlarni eksperimental ravishda muntazam tekshirish, diagnostik metodikalar va trening texnologiyalarni tadqiq etish hamda pedagogik jarayonining tashkiliy-pedagogik muhitini barqaror rivojlantirib borish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Anorganik kimyodan laboratoriya mashg'ulotlari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti kengashining 2023 yil 30-maydagi 10/3.4–sonli qaroriga

asosan 2023/164U-31-sonli guvohnomasi). Natijada, talabalarning ijodiy kompetentligini rivojlantirish darajalarini tahlil qilish imkoni kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 1 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan, ishning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'qitish nazariyasi va amaliyotida talabalarning funksional savodxonligini baholash muammosining holati”** deb nomlangan birinchi bobida Funksional savodxonlik tushunchalari to'liq yoritib berilgan. Bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallashuv va dunyo bozorida raqobat toboro kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida ko'zlangan natijalarga erishishda hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodlarni tarbiyalash lozim. Bundan tashqari, faqat savodli va o'qimishli odam muhim narsalar va mavzular haqida gapira oladi va dunyoga ob'ektivroq qaray oladi.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar mazmuni va umuman o'qitish usullari bo'yicha ham, turli omillarning ta'siri (boshqaruv modeli, o'qitish tili, ijtimoiy rivojlanish) nuqtai nazaridan ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi) maktab o'quvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish darajasidir.

Funksional savodxonlikning o'lchovlari til, kompyuter va axborot, huquqiy, fuqarolik, moliyaviy, ekologik, o'z faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilash va o'zgartirish, muloqot qilish, noaniqlik sharoitida faoliyatning eng oddiy harakatlarini amalga oshirish qobiliyati. Ta'lim jarayonida o'quvchilar va talabalarning bilimni baholash, ularni kvalimetrik tahlil qilish, ta'lim sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan amaliy asoslari ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, AQShning Yel universiteti (Yale University, USA), Stenford universiteti (Stanford University, USA), Chikago universiteti (University of Chicago, USA), Irlandiyaning Dublin Triniti kolleji (Trinity College Dublin, Ireland), Germaniyaning Vuppertal universiteti (Universität Wuppertal,

Deutschland), Avstraliyaning Tasmaniya universiteti (University of Tasmania, Australia), "Rossiya ta'lim akademiyasining ta'limni rivojlantirish strategiyasi" ilmiy tadqiqot instituti, Janubiy Federal universiteti (Rossiya Federatsiyasi, Rostov-Don)da olib borilgan.

Funksional savodxonlik - inson faoliyatining turli sohalarida hayotiy muammolarni hal qilishi, tashqi muhit bilan munosabatlarga kirishishi, tez moslashishi va unda ishlashi uchun hayotda doimiy egallagan barcha bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish usuli sifatida qaraladi.

Kimyo fanidan talabalarning funksional savodxonligi diagnostikasi-bu dars boshida talabalarning funksional savodxonligi darajasini aniqlashdan iborat. Kimyo fanidan talabalarning funksional savodxonligi sifati-talabalar tomonidan asosiy kimyo ta'limining mazmunini o'zlashtirishning ma'lum darajasi zamonaviy standartlarga javob beradigan dars jarayonida amalga oshiriladi. Talabalarning funksional savodxonligi-bu ma'lum darajadagi umumtalim maktablarda o'zlashtirilgan asosiy kompetentsiyalarni o'zlashtirish darajasini ifodalovchi, o'quv faoliyatida va undan tashqarida samarali harakat qilish, yangi kutilmagan vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Bir qator tadqiqotchilar ta'kidlashlaricha, *pedagogika oliy ta'lim muassasa talabalari* og'zaki nutqining rivojlanganligi va aratorlik intellektni rivojlantirish bilan ajralib turadi, uning tarkibiga konstruktiv faoliyat qobiliyatlari, yanada rivojlangan rasmiy mantiqiy fikrlash, sintetik va analitik fikrlashning kombinatsiyasi kiradi. Yuqori darajadagi kontsentratsiya, diqqatni almashtirish, vizual xotira, aqliy operatsiyalarning yuqori tezligi va aniqligi aniqlandi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasa talabasi uchun aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish kasbiy shakllanishning muhim bosqichiga aylanadi: nazariy fikrlash, mavhumlashtirish, umumlashtirish qobiliyati sezilarli darajada rivojlanadi.

Kognitiv qobiliyatlarda sifati o'zgarishlar ro'y beradi: allaqachon ma'lum bo'lgan muammolarga nostandart yondashuv; umumiy muammolarga xususiy muammolarni kiritish qobiliyati; eng yaxshi tarzda ishlab chiqilmagan vazifalar asosida ham samarali umumiy savollar berish qobiliyati. Bizning fikrimizcha, kognitiv faoliyat keng ko'lamli vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu talabalarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha bilim doirasini chuqurlashtirish va kengaytirishga yordam beradigan talabalarning turli xil o'quv va sinfdan tashqari faoliyatining ajralmas qismi bo'lishi mumkin. Umuman olganda, talabalar rivojlanishining eng muhim omili bo'lib xizmat qiladigan kognitiv faoliyat umumiy ufqni kengaytirish, intellektual darajani oshirish zarurati bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, faqat talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, biz ularning bilim faolligini samarali rivojlantira olamiz.

Talabalarni o'quv faoliyatini baholashda psixologik xususiyatlarning o'rni va ahamiyati juda katta. Psixologik xususiyatlar, talabaning motivatsiyasi, muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan ishtiyoqi, stress bilan boshlashga tayyorgarlik darajasi va umumiy maqsadlarga yo'naltirilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Psixologik xususiyatlar talabalarning o'quv jarayonini tahlil qilishda va ularning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bilimlarni nazorat qilishni tashkil etishga qo'yiladigan talabalar. Talabalar bilimni xolisona nazorat qilishni tashkil

qilish uchun ma'lum talablarga qat'iy rioya qilish kerak. Talablar quyidagicha bo'lishi kerak: o'ziga xoslik, ya'ni, ta'lim maqsadi hamma tomonidan aniq tushunilishi kerak; diagnostika, ya'ni maqsadga erishilganligini tekshirish imkoniyati bo'lishi kerak; mazmuni, ya'ni maqsad talabaning o'quv jarayonida olgan bilimlarini aks ettirishi kerak. Bilimlarni nazorat qilish uchun quyidagi talablarga alohida e'tibor beriladi: tinglovchilarning fan mazmuni bo'yicha bilimlarini ob'ektiv baholash talabi; tinglovchilarning aqliy harakatlarini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish va yo'naltirish talabi.

Talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash o'quv jarayonining muhim qismi bo'lib uni to'g'ri shakllantirish ko'p jihatdan ta'lim muvaffaqiyatini belgilaydi. Uslubiy adabiyotlarda baholash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi "Qaytar aloqa" deb ataladigan narsa, o'qituvchi fani o'qitish samaradorligi to'g'risida ma'lumot oladigan ta'lim jarayonining bosqichidir. Shunga ko'ra, talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholashning quyidagi maqsadlari ajratiladi: talabalarning bilim va ko'nikmalarini diagnostika qilish va tuzatish; o'quv jarayonining alohida bosqichining samaradorligini hisobga olish; turli darajadagi ta'limning yakuniy natijalarini aniqlash.

Baholash - bu real natijalarni rejalashtirilgan maqsadlar bilan bog'lash jarayoni. Baholash ob'ekt-ob'ekt, sub'yekt-sub'yekt va sub'yekt-ob'ekt ustunlik va afzallik munosabatlarini aks ettirishning aqliy jarayoni bo'lib, u baholash predmeti va baholash asosini taqqoslash jarayonida amalga oshiriladi.

Zamonaviy pedagog – faoliyatning barcha sohalarida muvaffaqiyatli ishlashiga va tez o'zgarib turadigan axborot muhiti bilan integratsiyalashuviga imkon beradigan shaxs darajaga ega bo'lishi kerak. Buning uchun funksional savodxonlikning muhim tarkibiy qismlari pedagoglarga shakllangan bo'lishi kerak:


doimiy ravishda o'rganish va rivojlantirish, faol ijodiy fikrlash, belgilangan vazifalarni hal qilishning nostandart usullarini topish, o'zingizning professional yo'lingizni va hayotiy ko'rsatmalaringizni tanlash imkoniyatiga ega bo'lish.

Xalqaro baholash tadqiqotlarida funksional savodxonlikning tarkibiy qismlari: o'qish, matematik, tabiiy ilmiy, moliyaviy savodxonliklar va ijodiy fikrlash, global kompetensiyalardan iboratdir. Talabalarining funksional savodxonligini rivojlantirishda ularni kundalik hayotimizda uchratadigan jihozlarga ilmiy nuqtai-nazardan asoslash (fikrlash, taqqoslash, tahlil qilish)ga o'rgatish zarur. Turli ob'ektlarning umumiyliги nimada ekanligini so'rash orqali ular funksional savodxonlik rivojlanganligini aniqlab olish mumkin.

Dissertatsiyaning **"Kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholashning tashkiliy va metodik asoslari"** deb nomlagan ikkinchi bobida talabalarning kimyo bo'yicha funksional savodxonligini baholashning uslubiy va nazariy asoslari, kimyo fanidan talabalarning funksional savodxonligini baholashning konsepsiyasi va pedagogik modeli, kimyo fanidan talabalarning funksional savodxonligi sifatining pedagogik diagnostikasi, kimyo fanidan talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasi tushuntirib berilgan. Talabalarga umumiy va anorganik kimyo faniga oid mavzular asosida quyidagi kabi topshiriqlar tayyorlash orqali ularni funksional savodxonligini Blum taksonomiyasi asosida shakllantirish mumkin. Blum taksonomiyasida talabalar

topshiriqlarda berilgan vazifalarni bajarishda bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez va baholash kompetensiyalariga ega bo'lishadi. Quyidagi berilgan topshiriqlar produktiv test topshirig'i bo'lib, bunda talabalar oldingi o'zlashtirgan bilimlari asosida topshiriqni fikrlab bajarishadi.

1. Quyida berilgan rasimga diqqat bilan qarang va rasmlarni qaysi birlarida noelektrolit moddalar ifodalangan?



Javob: _____

Javob: a va c

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilimni baholash metodlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini aniqlash, mavjud kamchiliklarga barham berishga zamin tayyorlaydi. Talabalarning kimyo fani bo'yicha funksional savodxonligini shakllantirishda kimyo faniga oid ma'lumotlar asosida yuqorida keltirilgan baholash tamoyillariga, topshiriqlarni tayyorlashda talabalarning kreativ fikrlashiga oid nostandart test topshiriqlarining turlaridan foydalanish zarurdir.

Baholash - bu nimanidir sifati yoki darajasini aniqlashtirish. Baholash deb, haqiqiy natijalarning rejalashtirilgan natijalar bilan o'zaro bog'liqlik jarayonni sifatida ham tahlil qilishimiz mumkin. Xalqaro miqyosda o'quvchilar funksional savodxonlikni baholashga qaratilgan PISA tadqiqot dasturida asosiy yo'nalishlar sifatida o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar savodxonligi va kreativ fikrlash kiritilgan. Shuni ayta olamiz-ki, PISA tadqiqotlaridagi tabiiy fanlar savodxonlik topshiriqlari darajalariga qo'yilgan talablar Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan (savol va topshiriqlar tizimi - bilish faoliyati darajalariga asoslangan) o'quv maqsadlari taksonomiyasiga mos kelishini kuzatish mumkin.



3-rasm. B. Blumning o'quv maqsadlari taksonomiyasi

Funksional savodxonlik fanlar integratsiyasini talab etadi va o'quvchilarga maktab dasturini ongli tarzda o'zlashtirish, hodisa va jarayonlar o'rtasida qo'llash, munosabatlarni anglash imkonini beradi. Bunda matematika, fizika, kimyo, biologiya, ekologiya fanlaridan faktlarni, nazariyalarni, qonuniyatlarni mazmunli anglash, aniqlashtirish va chuqurlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Bu esa bevosita ta'lim sifatiga juda katta ta'sir etadi.

Kimyo ta'limida funksional savodxonlik va malakani baholashning integratsiyasi XXI asrda muloqot, hamkorlik, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u beradigan hozirgi ta'lim tendentsiyalariga mos keladi.

Baholash usullari quyidagicha ifodalash mumkin.

Yozma baholash, laboratoriya ishini bajarish, kontsepsiya xaritasi, muammolarni yechish vazifalar.


Kimyo fanini o'qitish jarayonida testlarning yangicha ko'rinishlarini ishlab chiqish, mavjud testlarni takomillashtirish, testlarni vaziyatli, muammoli, rasmlil, jadvalli topshiriqlar bilan uzviylashtirish lozim. Quyida bir qancha baholash usullarini ko'rib chiqamiz va hozirgi kundagi o'zgarishlar asosida pedagogik jihatdan taqqoslab chiqamiz.

An'anaviy baholash tizimi. Pedagogik amaliyotda keng qo'llaniladigan besh balli shkala bo'yicha baholash usuli sodda va hammaga tanish.

An'anaviy baholash tizimi 4 xil darajaga asoslangan bo'lib, fan bo'yicha o'quv materiallarini o'zlashtirish davomida talabalarning shaxsiy o'quv faoliyati yutuqlarini hisobga oladi.

Baholash ko'rsatkichlari

Minimal (1 ball)	O'quv materialini bilmaydi va tushunmaydi
Qoniqarsiz (2 ball)	O'quv materiallarning ko'pini bilmaydi. Og'zaki savollarga noaniq javob beradi, yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi.
Qoniqarli (3 ball)	Asosiy materialni biladi, lekin chetdan yordamsiz olgan bilimlaridan amalda to'g'ri foydalana olmaydi. Og'zaki javoblarda va yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'yadi.
Yaxsi (4 ball)	Kerakli materialni biladi, savollarga osongina javob beradi, olgan bilimlarini amalda qo'llaydi. Og'zaki javoblarda qo'pol xatolarga yo'l qo'ymaydi va yozma ishlarda faqat kichik xatolarga yo'l qo'yadi.
A'lo (5 ball)	Dastur bo'yicha materialni to'liq biladi, mavzuni mukammal tushunishini namoyish etadi, o'qituvchining savollariga to'g'ri va ishonchli javob beradi, olingan bilimlar yordamida amaliy masalalarini mustaqil ravishda yecha oladi. Og'zaki va yozma javoblarda xatolarga yo'l qo'ymaydi.



1-sxema. Kimyo o'qitish jarayonida talabalarning funksional savodxonligini baholash metodikasi modeli

Umumiy kimyo fanidan kimyoviy bog'lanish va uning turlari mavzusi tushuntirilgandan keyin talabalardan joriy nazorat sifatida quyidagicha savol, test

hamda topshiriqlar berish asosida baholash mumkin. Joriy nazoratda talaba olishi kerak bo'lgan 2 ball bo'lsa talabalarga qo'yidagicha savollar berib baholash mumkin.

1-savol. Oddiy va murakkab moddalar tarkibidagi atomlar orasidagi bog'ni uzish uchun energiya sarfi qanday bo'ladi?

Javob – Agar talaba yuqorida keltirilgan savolga quyidagicha javob bersa ya'ni-kimyoviy bog'lanish qancha mustahkam bo'lsa, uni uzish uchun shunchalik ko'p energiya sarf bo'ladi deb javob bersa u talabaga 0,2 ball qo'yish mumkin.

Nima uchun 2 balddan atigi 0,2 ball qo'yish kerak? - degan savolga quyidagicha izohlash mumkin. Talabalar mavzuni to'liq o'zlashtirganligini bilish uchun “Blits savol”, “Aqliy hujum”, “Baxs munozara” metodlaridan foydalanib 10 ta savol tuzishi va bu asosida talabalarni baholashi mumkin. Dars davomida joriy nazorat savollarini tayyorlash va ularni baholash professor-o'qituvchilarni o'zlariga havola. Ular 20 savol orqali (har bir savol uchun 0,1 ball) yoki 5 ta savol (har biri uchun 0,4 ball) orqali baholashlari mumkin. Biz talabalarni mavzuni o'zlashtirish darajasini baholashda oldin talabalarni mavzuga oid oddiyroq (reproduktiv) keyin nisbatan savollarni qiyinlik darajasini ortirib (produktiv, qisman izlanuvchan) oxirida talabalarni xotirasi emas ularni ijodiy (kreativ) fikrlashlarini baholamoqchimiz. Talabalar kimyo fanidan ma'lum bir modulni tugatganlaridan keyin ulardan oraliq nazorat savollari olinadi. Oraliq nazorat B.Blum taksonomiyasiga oid test shaklida yoki topshiriqlar asosida baholanishi mumkin. Biz oraliq nazorat savollarini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tuzishga harakat qildik.

2-savol. KEYS. Planetar modelga ko'ra, musbat zaryadlangan yadro atrofida manfiy zaryadlangan elektron harakatlanadi. Klassik fizika qonuniyatlariga ko'ra, har qanday ish (harakat) uchun energiya sarflanadi. Eynshteynning $E=mc^2$ formulasiga ko'ra, energiya massa bilan bog'liq. Demak, o'z-o'zidan harakatlangan jism energiyasi massa hisobidan, ya'ni uning kamayishidan kelib chiqishi kerak. Agar, shunday bo'lsa, yadro atrofida harakatlanayotgan elektron vaqti kelganda yadroga qulashi lozim. Bunda atom beqaror bo'lib chiqadi. Vaholanki, atom barqaror! MUAMMO: nima uchun musbat zaryadli yadro manfiy zaryadli elektronni o'ziga tortib olmaydi yoki nima uchun katta tezlikda harakatlanayotgan elektron atomdan chiqib ketmaydi? Planetar nazariyaga ko'ra orbitalarni qanday izohlash mumkin?

Javob: birinchidan, katta tezlikda harakatlanayotgan elektronni yadro tortib turadi, shuning uchun atomdan chiqib ketolmaydi. Ikkinchidan, ayni harakat sababli markazdan qochma kuch hisobiga elektron yadroga qulab tushmaydi. Yadroga tortilish kuchi bilan markazdan qochma kuch teng bo'lganda elektron uchun turg'un masofa hosil bo'ladi va ayni masofadagi harakati sababli orbita paydo bo'ladi deb tushunish mumkin. Talabani javobiga qo'yiladigan ball.


